

## “TARIXIY HARBIY TERMINLAR LUG‘ATI”NING TUZILISH PRINSIPLARI

**Nilufar Laziz qizi Abdurahmonova**

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 4-boqich talabasi

[abdurahmonovanilufar33@gmail.com](mailto:abdurahmonovanilufar33@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada harbiy terminologiya masalalari yoritilgan hamda H.Dadaboyev tomonidan tuzilgan “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”ning tuzilish strukturasi bir qancha misollar asosida ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** terminologik lug‘at, polisemiya, sinonimiya, istiloh, sitata.

### ABSTRACT

*The article covers issues of military terminology and the structure of “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” written by H. Dadaboyev is revealed with several examples.*

***Key words:*** terminological dictionary, polysemy, synonymy, translation, quote.

### KIRISH

Harbiy terminologiya – alohida toifaga kiruvchi harbiy tashkilot va turli harbiy xizmatchilar tomonidan qo‘llaniladigan so‘z, atama va qisqartmalar. Harbiy ish va harbiy san‘atga oid bo‘lgan, harbiy sohada ishlatilgan tushunchalarni ifodalovchi terminlar harbiy terminologiya asosini tashkil etadi.

Terminologik lug‘at esa faqat bir tor soha terminlarini tushuntirib berishi yoki bilimning turli xil, odatda, yondosh sohalari terminlarini qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, terminologik lug‘at bir tilli bo‘lishi (bir tildagi muayyan soha terminologiyasi jamlanib, uning izohi ayni shu tilda beriladi) yoki ikki, uch va ko‘p

tilli bo‘lishi (bir tilning terminlari boshqa til yoki boshqa tillar terminlari bilan izohlanadi) ham mumkin<sup>1</sup>.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hamidulla Dadaboyev qadimgi turkiy til, eski turkiy til hamda eski o‘zbek adabiy tili davrida iste’molda bo‘lgan harbiy sohaga oid terminlarni o‘zida mujassam etgan “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” bilan terminologiya, leksikologiya, leksikografiya sohasiga ulkan hissa qo‘sha oldi, deyishimiz mumkin.

Mazkur lug‘atdan O‘rxun-Enasoy bitiklari, eski turkiy til obidalari va eski o‘zbek adabiy tili manbalarida qo‘llanishda bo‘lgan, hozirgi kunga kelib tarixiy yoki arxaik so‘zlar sirasiga kirib qolgan mingdan ortiq harbiy terminlar joy olgan, ularning ma’no nozikliklari aksariyat yodgorliklardan keltirilgan ashyoviy misollar yordamida ochilgan”<sup>2</sup>

### NATIJALAR

Quyida “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”ning struktur tuzilishini ko‘rib chiqamiz:

- Lug‘at maqolalari qat’iy alifbo tartibida joylashtirilgan;
- Termin tarkibidagi har bir tovush bosh harfda berilgan hamda har bir termin yirik qora harflar bilan terilgan: BEG, BEJANG, CHILG‘AN, DILOVAR;
- Lug‘atdan o‘rin olgan tasdiqlovchi misol-sitatalarning qaysi asarga oidligi, bet va satri, nashr qilingan manbalarning jildi va sahifasi aniq ko‘rsatilgan: BUZUG‘LUG‘// BUZUG‘LUQ – mag‘lubiyat, tumtaraqay bo‘lib qochish, parokandalik: Toshkand buzug‘lug‘ida Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultong‘a tushub erdi, aning bir qizi bo‘lub edi. BN,69-b.
- Terminlarning etimologiyasi haqida aniq ma’lumotlar ko‘rsatigan: JAHD – ar. – tirishish, sa’y, g‘ayrat; NO‘YON – mo‘g‘ – amir, bek, no‘yon. Sof turkiy istilohlar hamda so‘z yasovchi affikslar yordamida yasalgan terminlar uchun etimologik tavsif keltirilmagan: BAYDAQ – bayroq, alam; DAQU – patsiz o‘q;

<sup>1</sup>Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017, 30-б.

<sup>2</sup> Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati –Toshkent, 2022, 3-b.

•Siniq ko‘plik asosida yasaluvchi istilohlarning ko‘plik (birlik) shakli qavs ichida berilgan: BALDA (ko‘pl. BILOD) – ar.– shahar; FAVJ (ko‘pl. AFVOJ) –ar.– to‘da, guruh, otryad;

•Lug‘atda fe‘llar infinitiv shaklda emas, bosh shaklda berilgan va har bir fe‘l-termin so‘nggiga “=” belgisi qo‘yilgan: O‘LJALA= – o‘lja qilmoq, qo‘lga tushirmoq; asir etmoq; QATRA= –nayza sanchmoq;

•H. Dadaboyev sharq lug‘atchilik an‘analarini davom ettirgani holda imkoni boricha istilohning barcha ma‘nolarini qayd etishga harakat qilgan. Xususan, “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati”dagi 79 ta istiloh ko‘p ma‘nolilik xususiyatiga ega bo‘lib, ularning ma‘nolari arab raqamlari bilan belgilanganligi aniqlandi: MASOF –ar.– 1.jang maydoni, janggoh; 2. jang, urush; MUHASSIL –ar.– 1.nazoratchi; 2.xiroj yig‘uvchi, omil; QO‘NDAQ – 1. miltiq qo‘ndog‘i; 2. to‘p, zambarak qo‘ndog‘i(lafet); SANCh – 1. sanchmoq, tiqmoq, urmoq; 2. mag‘lub etmoq, yengmoq;

•Ma‘lumki, terminologiyada polisemiya va sinonimiya hodisalarining mavjud bo‘lishi ma‘qullanmaydi. Biroq shunga qaramasdan, qator terminologik sistemalarda muayyan narsa-buyum yoki tushunchani ifodalashda ba‘zan ikki yoki undan ortiq sinonim(dublet)lardan foydalanish ko‘zga tashlanadi<sup>1</sup>. Mazkur lug‘atda sinonimlar lug‘atdan keng o‘rin olgan bo‘lib, bu, asosan, turkiy xalqlarning tashqi aloqasi, harbiy faoliyati natijasida leksikaning o‘zlashmalar bilan boyib borishi hamda davrlar o‘tishi bilan bir terminning iste‘mol sur‘ati pasayib, o‘rnini boshqa biri egallashi bilan bog‘liqdir. Asli xitoy tilidan o‘zlashgan JANG terminining lug‘atdan 26 ta sinonimi o‘rin olgan bo‘lib, ular arabcha ( harb, hayjo, muqotala, masof, ma‘raka, muzoraba, jidol, jadal, qitol, zarb), forsha (korzor, nabard, paykor, parxosh, razm, sitez) o‘zlashmalar hamda turkiy (urush, savash, muhoraba, kurash, ish, sanchish, sungush// sunus, talash, to‘qush// to‘qish, yog‘i// yag‘i) istilohlarni o‘z ichiga oladi.

•Lug‘atshunos omonimlarning har qaysisini alohida maqolalarda bosh so‘z tarzida bergan va rim raqamlari bilan bir- biridan farqlagan. Shuningdek, bir so‘z turkumi doirasida shakldoshlik hosil qilgan terminlargagina omonim sifatida qaralgan

<sup>1</sup> Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019, 7-b

bo‘lib, jami 11 ta termin ma‘nosi izohlangan. Ularni shartli ravishda 2 guruh ( fe‘l va ot so‘z turkumi doirasidagi omonimlar)ga bo‘lish mumkin.

•Lug‘at maqolalari orasida bosh so‘zi yolg‘iz ishlatilmasdan birikma tarkibidagina qo‘llanilgan terminlar bo‘lsa, bosh so‘zdan keyin “ : “ (ikki nuqta) qo‘yilib, birikmadagi holati sharhlangan. Lug‘atda shunday xarakterga ega 19 ta termin izohlangan.

•Lug‘atni tuzishda Древнетюркский словарь. Л.,1969.; Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. Т. I-III.- Тошкент, 1960- 1963; Веляминов-Зернов. Словарь джагатайско-турецкий. -СПб., 1868; Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I-II.-СПб., 1869, 1871; Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Т. I-IV. -СПб., 1893-1911; Фазылов Э.И. Староузбекский язык. Хорезмийские памятники XIV века. Т. I-II. –Ташкент: Фан, 1966, 1971; Наджип Э.Н. Историко-сравнительный словарь тюркских языков XIV века. Книга I. -М., 1979; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков; Общетюркские и межтюркские основы на гласные.- М., 1974; Gronbech K. Komanisches Wörterbuch. Türkisches Wortindex in Codex Cumanicus.- Kopenhagen,1942; Doerfer G. Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I-IV.-Wiesbaden, 1963-1975; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Т. I-IV.-Тошкент: Фан, 1983- 1985 va h. k.<sup>1</sup> manbalardan foydalanildi.

## XULOSA

“Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” – o‘zbek tarixiy leksikografiyasi, umuman, turkologiyadagi eng muhim izlanishlardan biridir. Ushbu lug‘at tarixiy asarlarning mohiyatini ochish, tarixiy leksikologiyani o‘rganish, hozir tilimizda mavjud bo‘lgan harbiy sohaga tegishli so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga qadar qanday istiloh bilan qo‘llanilganligini aniqlash imkonini beruvchi nodir ilmiy manba hisoblanadi. “Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati” qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tili davrida ma‘lum bir guruhga mansub kishilar tomonidan keng qo‘llanilgan, hozirda esa

<sup>1</sup> Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug‘ati –Toshkent, 2022, 5-b

iste'moldan chiqqan yoki arxaiklashib, o'rnini boshqa so'zlarga bo'shatib bergan istiloh – terminlar asosida tuzilgan hamda lug'at tuzish prinsiplariga qat'iy rioya qilingan holda tartiblangan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2019.
2. Dadaboyev H. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. (XIV asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshi) Hammuallif. -Toshkent, 2007.
3. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent – 2020.
4. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.